

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**REFORMS IN THE HEALTHCARE SYSTEM IN THE DEVELOPMENT STRATEGY-2030 PROGRAM*****Shukrulla D. Tashpulatov****Tashkent University of Economics
Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: medicine, human health, medical services, Population Health 2030.

Received: 06.05.24

Accepted: 08.06.24

Published: 10.06.24

Abstract: This thesis describes the reforms aimed at public health and health-related problems and their solutions and goals, as well as the special role of health in the population. Today, the reforms carried out in this field in our country and their essence have been discussed.

**TARAQQIYOT STRATEGIYASI -2030 DASTURIDA SOG'LIQNI SAQLASH
TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR*****Shukrulla D. Tashpulatov****Toshkent iqtisodiyot universiteti
Toshkent, O'zbekiston***МАҚОЛА НАҚИДА**

Kalit so'zlar: tibbiyot, inson salomatligi, tibbiy xizmatlar, Aholi salomatligi 2030.

Annotatsiya: Ushbu tezis aholi salomatligiga qaratilgan islohotlar va sog'liq bilan bog'liq muammolar va ular borasidagi yechim va maqsadli vazifalar shuningdek, salomatlikning aholidagi alohida o'rni haqida yoritilgan. Bugungi kunda davlatimizda bu sohada olib borilayotgan islohotlar va uning mohiyatiga to'xtalib o'tilgan.

РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ В ПРОГРАММЕ «СТРАТЕГИЯ РАЗВИТИЯ-2030»***Шукрулла Д. Таипулатов****Ташкентский экономический университет
Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: медицина, здоровье человека, медицинские услуги, Здоровье населения 2030.

Аннотация: В данной диссертации описаны реформы, направленные на общественное здравоохранение и проблемы,

связанные со здоровьем, их решения и цели, а также особая роль здоровья населения. Сегодня обсуждены реформы, проводимые в этой сфере в нашей стране, и их суть.

KIRISH

Bugungi kunda har bir inson salomatligini ta'minlash muhim vazifalardan biridir. Negaki, hozirda dunyoda minglab odamlar har xil tarqalgan virus, nosog'lom turmush tarzidan, ekologik muammolar va ofatlardan kasallanib vafot etishmoqda. Misol uchun, so'nggi 3 yildan beri insoniyatni qiy nab kelayotgan “COVID-19” kasalligi, oziq-ovqat mahsulotlaridagi kimyoviy moddalarning ko‘payib ketganligi, ob-havoning aynishi, global isih natijasida yerlarning qurib ketishi yuqoridagi masalalarga misol bo‘la oladi. Shuning uchun ham biz inson salomatligiga chuqurroq e’tibor qaratishimiz, tibbiyot sohasida yangidan yangi islohotlar va strategiyalarni amalga oshirishimiz ayni muddao.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi haqida gap ketganda, aholi salomatligini muhofaza qilish, eng olis va chekka hududlar aholisiga namunali tibbiy xizmat ko‘rsatish masalalari ham e’tibordan chetda qolgani yo‘q. Chunki mamlakatda barcha sohalarda qo‘lga kiritilayotgan muvaffaqiyatlar zamirida inson salomatligi va sog‘lom turmush tarziga amal qilish masalalari yotadi.

ASOSIY QISM

Prezidentimizning “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni loyihasida ham bu masalalarga katta ahamiyat qaratilgan [1]. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya xizmati muassasalarini dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta’minalash ishlarini yanada yaxshilashga, shuningdek, davlat budgetidan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag‘larning 3 baravarga oshirilishini ta’minalash belgilangani muhim ahamiyatga ega. Bunda xonadonbay tibbiy profilaktikani kuchaytirishga imkoniyat paydo bo‘ladi.

Birlamchi tibbiy sanitariya xizmatining xodimlariga mehnatga haq to‘lash tizimini takomillashtirish orqali respublika hududlarining olis va chekka qishloqlari va kadrlar ta’moti past bo‘lgan hududlarni aniqlab, u yerda ishlayotgan shifokorlarning oylik maoshlariga alohida qo‘srimcha ustama kiritish masalalari ham aholi tomonidan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Yana bir muhim masala – birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida mavjud tibbiy jihozlarni xatlovdan o‘tkazish, aholiga davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan tibbiy texnika va tibbiy buyumlar ehtiyojini shakllantirish, xatlov natijalari va tibbiy texnika va buyumlarga ehtiyojdan kelib chiqib, birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalariga tibbiy jihozlar uchun qo‘yiladigan minimal talablarni ishlab chiqish, shakllantirilgan ehtiyoj asosida tibbiy texnika va tibbiy buyumlar xaridini amalga oshirish bo‘yicha ham kiritilayotgan yangiliklar o‘zining ijobjiy natijalarini berishi shubhasizdir.

Xonadonbay “maqsadli” skrinинг o‘tkazish choralarini ko‘rish masalalariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu orqali onkologik, endokrinologik va terapevtik kasalliklarga chalingan bemorlarni erta bosqichlarda aniqlash, aniqlangan bemorlarni tegishligi bo‘yicha hududning o‘zida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni tashkil etish orqali bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishish mumkin. Bugungi kunda yuqumli bo‘lmagan kasalliklar profilaktikasi, aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faoliyat madaniyatini shakllantirish zarurligi ta‘kidlangani xalqimiz sihat-salomatligi haqida qayg‘urish, buni eng ustuvor ahamiyat qaratishning yorqin namunasidir.

Har yili 7 aprel’ kuni dunyoning ko‘plab mamlakatlarida “Butunjahon salomatlik kuni” keng nishonlanadi. Xususan, yurtimizda ham bu sanada o‘ziga xos tadbirlar, turli aktsiyalar o‘tkaziladi. Shu o‘rinda, aholining salomatligini saqlash davlatimiz siyosatining eng asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanligini, shuningdek so‘nggi yillarda tibbiyot sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilayotganini alohida ta‘kidlash lozim. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tomonidan mazkur sohada qabul qilinayotgan bir qator farmon va qarorlar, ilgari surilayotgan takliflar hamda tashabbuslar aholimiz salomatligini saqlashda muhim ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda mamlakatimiz tibbiyoti rivoji uchun xizmat qilmoqda. Buni, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan 100 ta maqsaddan 14 tasi bevosita aholi salomatligini ta‘minlashga qaratilganidan ham bilish mumkin. Xususan, strategiyada belgilangan “Aholi salomatligi va genofondiga ziyon etkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish” maqsadi bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirish rejalashtirilgani ham aholi salomatligini saqlashda ekologik barqarorlikni ta‘minlash muhim o‘ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, o‘tgan 2023-yili 18 mart kuni davlatimiz rahbarining sog‘liqni saqlash sohasi vakillari bilan o‘tkazgan ochiq muloqotida yurtimizda tibbiyotni rivojlantirish borasida so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar bilan birgalikda, tibbiyot sohasi rivoji uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar, ularning echimlari bo‘yicha konstruktiv takliflar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarni belgilab berildi [2]. Mazkur tadbirda inson salomatligi 19 foiz – tashqi muhitga, 20 foiz – genetik omillarga, 9 foiz – sog‘liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog‘liqligi, sog‘lom turmush tarzi orqali kasallikning oldini olishga ko‘proq e’tibor berish zarurligi, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanadigan odam hech qanday davoga muhtoj bo‘lmasligi alohida ta‘kidlab o‘tildi. Haqiqatan ham, salomatligimiz asosan o‘z qo‘limizda ekanligini unutmasligimiz lozim.

Shu bilan birgalikda, ochiq muloqotda belgilangan vazifalarni amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan yo‘l xaritasida jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va to‘g‘ri ovqatlanishni targ‘ib qilish bo‘yicha alohida chora-tadbirlar belgilanganligi ham xalqimiz salomatligini mustahkamlash, har tomonlama barkamol avlodni voyaga etkazishda muhim ahamiyatga ega.

Inson salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiyaning, ommaviy sportning o‘rnii beqiyosligi hech kimga sir emas. Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish aholimiz salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bu borada davlatimiz rahbari raisligida 1 aprel’ kuni o‘tkazilgan yoshlar o‘rtasida ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilishda sohadagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Qayd etilganidek, so‘nggi uch yilda 118 ta sport majmuasi, mahallalarda 7 mingta sport maydonchasi foydalanishga topshirildi. Har bir tuman va shahar markazlarida “Salomatlik yo‘laklari” va velosiped yo‘llari tashkil etildi. Taraqqiyot strategiyasida jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholi sonini keyingi besh yilda 33 foizga etkazish ko‘zda tutilgan. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, sohada “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan barcha islohotlar aholimiz salomatligini ta‘minlashga qaratilgan [3].

Yana bir sog‘lijni saqlash uchun qaratilgan islohotlardan biri bu “Aholi salomatligi – 2030” milliy strategiyasidir. Loyihada 2024–2026 yillarga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlar rejasida qayd etilgan vazifalar ijrosini ta‘minlash uchun 270 dan ortiq chora-tadbirlar, shuningdek 2030 yilgacha erishiladigan 77 ta vazifa, 44 ta samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Ushbu vazifalardan bir nechta kafolatlangan tibbiy xizmatlarning aniq hajmi, pulli tibbiy xizmatlar turini kengaytirish, davlat tibbiyot muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish va moliyaviy faoliyatini biznes reja asosida yuritish mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, statsionar tibbiyot muassasalarida «har bir davolangan holat» uchun moliyalashtirish orqali davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlariga to‘liq o‘tish va boshqalar nazarda tutilmoqda. Shuningdek, “Aholi salomatligi-2030” strategiyasi loyihasiga ko‘ra, aholi orasida to‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish orqali ortiqcha vaznga ega aholi ulushini 50 foizga va semizligi mavjud aholi ulushini 23 foizga qadar kamaytirish mo‘ljallangan. Xususan, aholi orasida zararli odatlarga qarshi kurashish, tamaki chekuvchilar ulushini 10 foizga kamaytirish mo‘ljallanmoqda. Shuningdek, loyiada sog‘lijni saqlash yangi milliy raqamlashtirilgan tizimini to‘liq ishlab chiqish, qog‘ozbozlik, asossiz byurokratiya va navbatlarga chek qo‘yish, aholiga tibbiyot muassasalariga murojaat qilganida qulayliklar yaratish, epidemiologik holati barqaror bo‘lgan davlatlar qatorida bo‘lish kabi yo‘nalishlar ham aks etgan [4].

Yana bir sog‘lik bilan bog‘liq dolzarb muammoga to‘xtalib o‘tsak, Ya’ni, bugungi kundagi yurtimizdagи havo sifatining pastligi nafas olish bilan bog‘liq bir qator kasalliklarni keltirib chiqarishini e’tirof etish va bu masalaga chuqr e’tiborni qaratish juda muhimdir. Bu muammoga qator sabablar keltirish mumkin. Bunga asosiy sabablar avtomobillardan va turli xil korxonalardan chiqayotgan zaharli gazlar, daraxtlarni moratoriyyidan keyin ham noqonuniy kesishlarni olib borish, odamlarning o‘zi ham nafaqat tabiatga, balki, o‘z sog‘ligi hamda keljak avlodning salomatligi uchun

ham befarq bo‘lib qolganligidadir. Bu muammoni hal qilish uchun bir necha yechimlar ko‘rib chiqilmoqda va asta yo‘lga qo‘yilmoqda. Bular, “Avtomobilsiz kun” ni joriy etish, birgina zavod, korxona va fabrikalarga emas, balki, barcha jamoat joy burchaklariga havoni tozalovchi filtrlar o‘rnatish, daraxtlarni noqonuniy kesgan shaxslarga jinoiy chora ko‘rish, oddiy avtomobillardan elektrokarlarga o‘tishni joriy etish, jamoat transportini yaxshilash va undan ko‘proq foydalanish, “Yashil makon” loyihasini olib borish kabi bir necha maqsadli vazifalar hamda loyihalardan iboratdir[5].

Bundan tashqari, aholi salomatligiga yanada e’tiborliroq bo‘lish maqsadida fuqarolarning ishlash yoki o‘qish joylariga alohida tibbiy yordam markazlarini tashkil qilish joiz deb hisoblayman. Chunki, bunday loyiha fuqarolarga Shuningdek, aholidan tez-tez sog‘lik-salomatliliklari haqida onlayn yoki oflaysin tarzda turli xil ijtimoiy so‘rovnomalari o‘tkazish bizga xalqni ko‘proq qanday kasalliklar qiyinayotganini aniqlashda juda qo‘l keladi. Zero, sog‘lom mamlakat ishchi kuchi yaxshilanishiga olib keladi va bu o‘z o‘rnida mamlakatning ham iqtisodiy, ham ijtimoiy o‘sishini ta’minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, biz yangi o‘sib kelayotgan tibbiyot kadrlarining ilmiy va tajribaviy bilim darajasiga iloji boricha ko‘proq va chuqurroq urg‘u berishimiz darkor. Chunki, sog‘lig‘imizning najotkorlari yuqori saviyali va tajribali shifokorlardir. Shu bilan birga, yurtimiz shifoxonalari eng so‘nggi tibbiy texnologiyalar bilan jihozlanishini nafaqat xususiy shifoxonalarda, balki davlat shifoxonalarida va poliklinikalarda ham amalga oshirish lozim.

Mamlakatimiz dorixonalaridagi dori vositalari sifati nazoratini yanada kuchaytirish ham kata rol o‘ynaydi. Sababi, birgina dorining ming xil nojo‘ya ta’sirlari bo‘lishi mumkin, bunga “Dok-1 Maks” preparatining qanchadan qancha bolalarning hayotiga nuqta qo‘yanini yaqqol misol sifatida ko‘rishimiz mumkin. Shu masalaga yaqin orada tarqalgan dorixonalardagi dorilarning ba’zi bir soxta nusxalari ham bu borada yana ham jiddiyroq va diqqatliroq bo‘lishimizga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1]. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent “O‘zbekiston” nashryoti, 2022. B-267.
- [2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.12.2023 yildagi PQ-415-son
- [3]. Kun.uz
- [4]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 11.09.2023. PF-58 sonli O‘zbekiston strategiyasi – 2030 to‘g‘risida
- [5]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 23.11.2023 yildagi PF-199-son